

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



**QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**



"TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKSIYASI"

fanidan 5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi (tikuv buyumlari) yo'nalishi talabalari uchun laboratoriya ishini bajarish bo'yicha

USLUBIY KORSATMA

Guliston-2021 y.

5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi (tikuv buyumlari) yo'nalishi talabalari uchun "Tikuv buyumlarini konstruksiyasi" fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma.

Guliston, GulDU 2021 yil, bet.

Ushbu uslubiy ko'rsatma Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi (tikuv buyumlari) yo'nalishida tahsil olayotkan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Tikuv buyumlarini konstruksiyasi" fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Uslubiy ko'rsatma GulDU o'quv metodik kengashining 2021 yildagi
- sonli bayonnomasi qaroriga binoan nashr qilishga tavsiya etildi.

Tuzuvchi: **Sharipova N.M.** "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash
texnologiyalari" kafedrasи o'qituvchisi

Taqrizchilar: **Sherqulova N.** "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash
texnologiyalari" kafedrasи o'qituvchisi

GulDU o'quv-uslubiy Kengashi raisi: Sharipov F.G., dotsent

GulDU o'quv-uslubiy Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

"___" 2021 yil ____-sonli bayonnomasi

KIRISH

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘grisida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida uzluksiz ta’limning mazmuniy hamda tashkiliy rivojlanishiga doir strategik yo‘nalishga asoslangan holda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash aniq belgilangan. Unga ko‘ra ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga moslash, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish kabi vazifalarni hal etilishida malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasi o‘z ifodasini topgan.

Insonlarning zamonaviy va sifatli kiyimga bo‘lgan ehtiyojining doimiy o‘sib borishi korxonalar tomonidan ularning assortimentini ko‘paytirish va yaxshilash, sifatini oshirishni talab etadi. Respublikamizdagi tikuvchilik korxonalari, qo‘shma korxonalar va yakka buyurtma asosidagi tikuv korxonalari ishlab chiqaradigan mahsulotlari aholining kiyimga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari zamonaviy modellarni tayyorlashda yangi kam operatsiyali texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarishda eng yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llash, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishni davom ettirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish yo‘lidan borish iqtisodiyotimizning yuksalishiga muhim omil bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o’rta maxsus ta’lim pedagoglaridan ishlab chiqarish korxonalari uchun amaliy malaka ko‘nikmalariga ega bo‘lgan kadrlarni yetishtirib berish vazifasini talab etadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda ushbu o‘quv uslubiy majmua ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlarini loyihalash, modellashtirish bo‘yicha asosiy ma’lumotlar bat afsil yoritilgan. Shuningdek kiyimga qo‘yiladigan talablar, gazlamalarni tanlash, ularga qo‘yiladigan talabalar, o’lchov turlari va ularni olish tartibi, bichim turlari va ularni tanlash qoidalari, gazlamani bichishga qo‘yiladigan talablar, kiyim detallarini bezash turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

1-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: Kiyim tashqi shakli va konstruksiyasini tahlili.

Ishdan maqsad: Tikuv buyumlar assortimenti. Turli bichimdagi kiyim modellari tashqi shakli va konstruksiyasini tahlil qilish hamda kiyim shaklini yaratishning konstruktiv usullarini o'rganish.

Ish mazmuni:

1. Tikuv buyumlar assortimentini o'rganish.
2. Modellar tanlash va ularning tashqi ko'rinishi, konstruksiyasini o'rganish.
3. Tanlangan modellar tashqi ko'rinishiga tavsif berish.
4. Tanlangan modellarning konstruksiyasiga oid detallar eskizini chizish.

Qo'llanma va anjomlar: Kiyim kataloglari, moda jurnallari, o'quv plakatlari, texnik tavsif namunalari, qoqoz, qalam.

Ishni bajarish tartibi:

Ishning birinchi qismida moda jurnallaridan har bir talaba tashqi ko'rinishi, bichimi, shakli va konstruksiyasi bilan farqlanuvchi modellar (4-5 ta) tanlaydi. So'ng tanlangan model eskizlari silueti, konstruksiya va kompozitsiya chiziqlari aniq ifodalangan holda chiziladi. Model tashqi shakli va konstruksiyasini O'rganish uchun tanlangan modellar bichimi turlicha bo'lishi maqsadga muvofiq. Tanlangan modellarning old-ort ko'rinishi rangli eskizi chiziladi.

Modellar tashqi ko'rinishiga tavsif beriladi. Model tashqi ko'rinishiga tavsif berishda talaba texnik tilda ravon va aniq holda konstruktsiya uchastkalarini tavsiflab berishi kerak. Tavsifni tuzishda avval kiyim turi, uning vazifikasi, ishlatiladigan material turi, bichimi, taqilmasi haqida ma'lumot beriladi. So'ng old, ort bo'lak, yeng, yoqa, astarga tavsif berilib, tavsif oxirida taqilmani bezash turi, latskan va x.k.lar hamda tavsiya etiladigan o'lcham va bo'yilar ko'rsatiladi.

Ishning uchinchi qismida tanlangan modellarning konstruksiyasiga oid detallar eskizi beriladi. Detallar eskizini chizganda, qirqimlar konfiguratsiyasi to'qri va o'zaro mutanosib (proportsional) bo'lishiga e'tibor berish lozim. Qirqimlar raqamlanib, nomlanishi jadvalga yoziladi. Detallar eskizida nazorat kertiklar, tanda ipi yo'nalishi va detal kodi ko'rsatiladi. Detal konstruksiysi eskitilarini chizishda turli plakat va kiyim konstruksiya chizmalaridan foydalaniladi.

Ishni bajarishga qo'yiladigan talablar

Talabalar laboratoriya mashg'ulotini ishning tartibiga mos holda bajaradilar.

Laboratoriya ishiga quyidagilar ilova qilinadi:

- a) Modellar old-ort ko'rinishining rangli eskizi (A4 formatli qog'ozda) va ularni tavsifi.

(Kiyim nomi) _____ andaza detallari eskizi.

№	Andaza detallari va qirqimlar nomi	Detal eskizi	Detallar soni	
			andazada	Bichiqda
1.	Ort bo'lak 1-2 Yoqa o'mizi 2-3 Yelka qirqimi 3-4 Yeng o'mizi 4-5 Yon qirqim 5-6 Etak qiqim 6-1 O'rtal qirqim		1	1

2-LABORATORIYA ISHI.**Mavzu: Kiyim tashqi va ichki razmerlari tahlili qo'shimchalarni hisoblash.**

Ishdan maqsad: Turli kiyimlarni loyihalashda ishlatiladigan qo'shimchalarni o'rghanish, kiyim namunasi va andozalardan foydalanib, konstruktiv qo'shimchalarning qiymatlarini aniqlash.

Ish mazmuni:

- 1.Konstruktiv qo'shimchalar turlarini va ularni aniqlash usullarini o'rghanish.
- 2.Kiyim namunasidan foydalanib qo'shimchalar miqdorini aniqlash.
- 3.Konstruktiv qo'shimchalar qiymatini andozalar bo'yicha aniqlash.
- 4.Material paketi qalinligiga qo'shimchani aniqlash.

1. Buyum namunasi bo'yicha konstruktiv qo'shimchalar quyidagi tartibda aniqlanadi. Bortlari ochiq kiyimlar tugmalanadi va stolga tekislab qo'yan holda o'lchanadi. Tayyor yengil kiyimda (ko'yak, bluzka, sorochka) Pk ning miqdori kamligi uchun Pp va Ps yig'indisi olinadi.

P tayyor kiyimda ko'krak, bel va bo'ksa chizig'ida tayyor kiyimning chiziqlik o'lchami Pp va tipaviy figura o'lchami Ps farqi asosida topiladi.

$$Pk = Pp + Ps \quad (1)$$

2.O'lchov qiymatlari 2.1- jadvalning 3-ustuniga yoziladi. Ushbu jadvalning 6- ustuniga o'lchanayotgan kiyim razmeriga mos gavda o'lchami ko'rsatkichlari yozildi.

Kiyim razmeri ort bo'lak o'rtal chizigidan old bo'lak o'rtal chizig'igacha tekis holda o'lchanadi. 2.1-jadvaldag'i 1-, 5-, va 6-qatordagi o'lchamlar kiyimning ko'krak, bel va bo'ksa chiziqlari bo'yicha P miqdorini belgilaydi.

So'ngra ko'krak chizig'i bo'yicha ort bo'lak, o'miz va ort bo'lakka qo'yladigan qo'shimchalar aniqlanadi. Buning uchun eng tor joyda ort bo'lak, yengni ulash oralig'ida o'miz kengligi o'lchanadi. Old bo'lak kengligi ko'krak uchlari satxida o'lchanadi {2.1-rasm.} P miqdori (1) formuladan topiladi 2.1 jadvalga kiritiladi.

3.1-jadval

Kiyim namunasi bo'yicha aniqlanadigan qo'shimchalar
Bo'y _____. Buyum razmeri _____. To'lalik guruhi _____

№	Kiyimni o'lchash joyi	Kiyim o'lchami	Gavda o'lchami			Qo'chimcha sm
			Nomi	Belgisi	Qiymati	
1	Qo'ltik osti satxida kiyim kengligi					
2	Ort bo'lak kengligi (Eng tor joyda o'lchanadi)					
3	Old bo'lak kengligi					
4	Yeng o'mizi kengligi					
5	Bel chizig'i bo'yicha kiyim kengligi					
6	Bo'ksa chizig'i bo'yicha kiyim kengligi					
7	Yelka qiyamasi kengligi					
8	Yeng o'mizi asosi satxida yeng kengligi					
9	Yeng uchi kengligi					
10	Kiyim uzunligi (yoqa o'mizidan kiyim etagigacha o'lchanadi)					
11	Bo'yin o'mizi kengligi					
12	Ort bo'yin o'mizi kengligi					

Konstruktiv qo'shimchaning ko'krak chizigi bo'yicha taqsimlanishi hisoblab chiqiladi va ularga mos razmer o'lchamlari bilan solishtiriladi.

3.2-jadval

Kiyimda Pk ning taqsimlanishi

Umumiy qo'shimcha Pk	Ort bo'lak Psp	Yeng o'mizi Ppr	Old bo'lak Pp

3. Kiyim razmerlarining o'lchash ishlari pidjakda bajariladi. Buning uchun tayyor pidjak va uning andozasi razmerlari 2.2-jadvaldagi o'lchamlari va

2.1-rasmdagi sxema bo'yicha o'lchanadi, solishtiriladi va 2.3-jadvalga kiritiladi.

3.3-jadval

Erkaklar pidjagi konstruktsiyasi tahlili _____ razmer

Kiyimni o'lchash joyi, Konstruktiv qiymat	Belgi lanishi	O'lchov qiymati			Qo'shimcha, sm	
		Tayyor kiyim namunasi	Andozadagi o'lcham	Razmer o'lchami	Pk	Pt
Ort bo'lak kenegligi	Shs	26	27	25	1	1

2.3-jadvaldagi Pt – texnologik qo'shimcha qiymatini belgilaydi .

4. Qalin kiyimlarda P ning qiymati bilan birga P – materiallar paketi qalinligi qo'shimcha ham aniqlanadi. Buning uchun Pp miqdori material qalinligiga tp va figura egri uchaskalarining burchak yoylari orqali topiladi,

Ya'ni

$$Pp = t_p \times a$$


burchak qiymatlari turli kiyim assortimenti uchun {YEMKO SEV, 1-tomda} keltirilgan t – gazlama qalinligi, sm. Aniqlangan qiymatlar 2.4- jadvalga kiritiladi.

3.4-jadval

Kiyim qalinligiga beriladigan qo'shimcha

_____ kiyim turi

Kiyim uchastkasi (old, o'miz, ort bo'lak)	Material xarakteristikasi			Burchak Grad	Pp Miqdori, sm
	Gazlama turi	Materil qalinligi	Paket qalinligi		



3.1 rasm. Yarim yopilgan erkaklar pidjagi asosiy detallari shabloni razmerlarini tahlil qilish sxemasi.

Ishni bajarishga qo'yiladigan talablar:

Talabalar labaratoriya mashg'ulotini ishni bajarish tartibiga mos holda bajariladi.

2. Labaratoriya ishiga qo'yidagilar ilova qilinadi:
 - a) O'lchash joylari ko'rsatilgan kiyim eskizi.
 - b) 2.1-2.4- jadvallar.

Nazorat savollari:

- 1.Kiyim kostruktsiyasini qurishda qanday qo'shimchalar ishlatiladi?
- 2.Pk va Pt qo'shimchalari qaerda ishlatiladi?
- 3.Ps qo'shimcha qiymati nimaga bog'liq?

3-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: Kiyim loyihalashda qo'llaniladigan razmer o'lchamlari tahlili.

Ishdan maqsad: Ommaviy tarzda ishlab chiqariladigan kiyimlarni konstruksiyalashda qo'llaniladigan jussa o'lchamlarini o'lchash uslubini o'zlashtirish.

Ish mazmuni:

- 1.Axolini anropometrik tadqiqotlar qilish uslubini va o'lcham olishda qo'llaniladigan asboblarni o'rganish, o'lcham olish dasturini tuzish.
- 2.Asosiy antropometrik nuqtalarning joylashish sxemasi bilan tanishish va chizish.
- 3.O'lchamlarni olish dasturi bo'yicha qomat o'lchamlarni aniqlash.
4. O'lchamlarni olish dasturi bo'yicha gavdadan o'lchamlarni olish.
- 5.Individual va tipaviy qomatlar o'lcham ko'rsatkichlarining solishtirma tahlili.

Qo'llanma va anjomlar: sm.li tasma, antropometr, yo'g'on sirkul, katta yoshli aqoli va bolalar tipaviy qomatlar klassifikatsiyasi.

Uslubiy ko'rsatmalar:

1.Ish uuda antropologik o'lchamlarni o'lchash usulini o'rganishdan boshlanadi. O'lchash tartibini o'rganish uchun talabalar yuqorida tavsiya etilayotgan adabiyotlardan foydalanadilar.

1.1.O'lchamlarni olish usuli bilan tanishish:

Xozirga vaqtida ommaviy ravishda antropometrik o'lchovlar olishda quyidagi maxsus asbob va moslamalar qo'llaniladi:

- martin usulidagi ixcham metalli anropometr-antropometrik nuqtalarning balandligini o'lchashda ishlatiladi;
- xarakatli va xarakatsiz muftali antropometrning yuqori shtangasi ko'ndalang va old-orqa proeksion diametrлarni o'lchash uchun qo'llaniladi;
- yo'g'on sirkul-diametrлarni o'lchashga muljallangan;
- santimerli tasma-aylanalarni, yoysimon ko'ndalang va bo'ylama o'lchamlarni olishda qo'llaniladi.
- umurtqa pog'onasining egilgan joylarini xarakterlovchi proektsion o'lchovlarni olish uchun maxsus chizqichlar komplekti qo'llaniladi.
- ixcham tibbiyot tarozi-tana oqirligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

O'lchanayotgan shaxs gavda xolatining o'zgarishi tanaga oid ayrim o'lchamlarining o'zgarishiga sabab bo'ladi, shu bois o'lchamlar qat'iy muayyan xolatda olinadi. O'lchanadigan shaxs to'qli, zo'riqmasdan qo'llari tushirilgan, tovonlari birlashtirilgan, oyoqlarining uchi 15-20 smga surilgan, qomatini o'rgangan xolatda saqlab turishi kerak. Poldan antropometrik nuqtalarning balandligini va ayrim yoysimon bo'ylama o'lchamlarni olishda o'lchanayotgan shaxsning boshi muayyan xolatda (ko'z-quloq gorizontalida) turadi. Bu ko'z kosasining pastki uchi va quloq teshigidan yuqori qismining o'rtasi bir gorizontalda joylashgan xolatidir.

O'lchanaayotgan shaxs charchasa, qolati o'zgaradi va o'lchamlarning aniqligi kamayadi. Shu bois o'lchamlar tez olinishi zarur.

Barcha chiziqli va yoysimon o'lchamlar 1 mm gacha aniqlik bilan olinadi, tana massasi esa 200 grammgacha aniqlik bilan o'lchanadi.

Antropometrik nuqtalar balandligini o'lchashda Martin tizimidagi antropometr ishlatiladi; antropometrning yuqori shtangasi yordamida old-orqa va ko'ndalang proektsion diametrler aniqlanadi; aylana va bo'ylama o'lchamlar santimetrik tasma yordamida o'lchanadi; yo'g'on sirkul yordamida to'g'ri o'lchamlar olinadi.

Jussa o'lchovlari quyidagi bosh qarflar bilan belgilanadi:

V – balandliklar

D – uzunliklar

O – aylanalar

R – bo'y

S – yarim aylanalar

Sh – kengliklar

D – diametrlar

G – chuqurliklar

Pk – gavda qolati

Yoniga kichik xarf (indeks) qo'yilgan bosh xarflar bilan o'lhash joylari belgilanadi.

1.2.O'lcham olish usuli bilan tanishgach xar bir talaba laboratoriya daftarida o'lchovlar jadvalini tayyorlaydilar (1.2. jadval).

1.3.Laboratoriya ishi 3 kishilik gurux tomonidan bajariladi, ularning xar biri galma-gal o'lchov oluvchi, o'lchanuvchi va o'lchov natijasini yozib boruvchi shaxs rolida ishtirot etadilar.

1.4.O'lchov oluvchilar xar bir nuqta o'rmini aniq topishlari va o'lchov olish dasturi va usuliga qat'ian rivoja qilishlari zarur. O'lchanuvchi o'lchov olish mobaynida gavdani va boshni bir xil xolatda tutib turishi yoki to'g'ri nafas olishi zarur.

2.Asosiy antropometrik nuqtalarning o'rni tavsiya etilayotgan adabiyotlardan foydalanib aniqlanadi va talabalarga darsda tarqatma material sifatida beriladi. Laboratoriya mashg'ulotlarida antropometrik nuqtalar xarakteristikasi 1.1.-jadval ko'rinishida daftarga qayd etiladi.

Asosiy antropometrik nuqtalarning xarakteristikasi:

O'lchamlar aniqligini oshirmoq maqsadida ular odatda muayyan antropometrik nuqtalarga nisbatan o'lchanadi. Antropometrik nuqtalar skeletning qo'lga seziladigan g'adir-budirliliklari, o'simtalarning uchlari yoki aniq ko'rindigan chiziqlariga mos holda belgilanadi.

Antropometriyada 100 dan ortiq nuqtalar mavjud. Aqolining o'lchamli tipologiyasini tuzishda 16 ta antropometrik nuqta ishlatiladi. Asosiy antropometrik nuqtalarning joylanishi 1-rasmda, ifodasi esa 1.1-jadvalda keltirilgan.

Antropometrik nuqtalarining joylanishi

Shartli belgisi	Nuqtalar nomi	Nuqtalar joylanoshi
a	Cho'qqi nuqta	O'ng ko'zning pastki burchagi bilan qulqoq kesmasi gorizontaldan chetka chiqmagan xolda eng cho'qqi nuqtasi
b	Bo'yin nuqtasi	Yettinchi bo'yin umurtqasining o'tkir o'simta uchi
V	Bo'yin asosining nuqtasi	Bo'yinning aylana chizig'i yelka qiyaligi chizig'i bilan kesishgan nuqtasi
G	O'mrov suyagining nuqtasi	O'mrov suyagining to'sh suyagiga birikkan yuqori nuqtasi
D	To'sh suyagining yuqori nuqtasi	To'sh suyagi yuqorisidagi qirqimnmng o'rtasi
Ye	To'sh suyagi o'rtasidagi nuqta	To'sh suyagining o'rta chizig'ida 4 juft qovurg'alar uchi birikkan satxda joylashgan.
J	Yelka akronial nuqtasi	Kurak akromial o'simtasining yon tomonidagi bo'rtgan nuqtasi.
z	Yelka nuqtasi	Kurak suyagi akromial o'simtasining yuqoridagi cheti bilan elka bo'g'imi soxasini ikkiga bo'lgan vertikal tekislik kesishgan joyi.
i	Tirsak nuqtasi	Bilak suyagining tashqi tomonidagi yuqori uchi.
k	Ko'krak uchi nuqtasi	Ko'krak bezining uchi.
l	Qirra nuqtasi	Yonbosh suyagi qirrasining chetga eng ko'p chiqib turgan nuqtasi.
m	Tizza nuqtasi	Tizza qopqog'ining markazi.
n	qo'litiqning oldingi burchagi	Qo'lni pastga tushirilgan xolda qo'litiq chuqurchasining olding cheti xosil qiladigan yoyning eng baland nuqtasi.
o	qo'litiqning orqa burchagi	Qo'lni pastga tushirilgan holda qo'litiq chuqurchasining orqadagi cheti hosil qiladigan yoyning eng baland nuqtasi.
p	Dumba nuqtasi	Dumbaning eng bo'rtgan nuqtasi.
r	Bel chizig'inining balandlik nuqtasi	Biqining ichga botib turgan joyida pastki qovurg'a bilan yonbosh suyagining

Anropometrik o'lchovlar olish avval tuzilgan dastur bo'yicha o'tkaziladi. (2.2.-jadval).

Kiyimni konstruktsiyalash maqsadida qo'llanadigan antropometrik o'lchovlarning dasturi 60-70 tagacha turli razmer va o'lchamlaridan iborat.

Tanani yuzasidan olinadigan o'lchamlar yoyslar deyiladi. Ular bo'ylama va ko'ndalang yoyslarga bo'linadi.

Bo'ylama o'lchamlarga uzunliklar, masofalar, yoyslar, balandliklar kiradi. Ko'ndalang o'lchamlarga aylanalar, kengliklar, yoyslar kiradi.


Tana yuzasidagi ikki nuqta oraliqini aniqlaydigan, lekin tana yuzasidan tashqarida olinadigan o'lchamlar chiziqli deyiladi. Ular proyeksion va to'g'ri o'lchamlarga bo'linadi.

Proyeksion o'lchamlar tanaga ikki nuqta orasidagi masofani vertikal yoki gorizontal tekisliklarga tushgan proyeksiyalari bilan aniqlanadi.

Proyeksion diametrlar bo'yinda, tanada old-orqa va ko'ndalang yo'nalishda olinadi. Chuqurliklar asosan umrtqa pog'onasini xarakterlash uchun o'lchanadi.

Bir talaba ikkinchi talabaning gavda o'lchamlarini aniq va diqqat bilan oladi. Uchinchi talaba esa o'lchov qiymatlarini daftarga yozadi.

Har bir o'lchovni kamida ikki marta olish kerak. Agar o'lchovlarining farqi 0.5 sm dan oshsa, shu o'lchov uchinchi marta olinadi. Bir biriga yaqinroq bo'lgan ikkita o'lchovning o'rta arifmetik natijasi 2.1.-jadvalning oltinchi ustuniga, ularning farqi esa yettinchi ustunga yoziladi.




2.1.rasm-Antropometrik nuqtalar.

3.1.O'lchov olishdan avval o'lchanuvchi figurada antropometrik nuqtalar o'rni aniq belgilab olinadi. Bel chizig'i gorizontal xolati belga bog'langan tasma yordamida aniqlanadi.

3.2.O'lchov olish mobaynida bir talaba yozadi ikkinchisi o'lchaydi, uchinchisi o'lchanadi. O'lchov olishda talabalar o'lchov asboblarining to'g'ri ishlatalishiga o'lchanuvchi talabaning doim bir xolatda turishiga, o'lchovlarning aniq yozilishiga ahamiyat beradilar. O'lchanuvchi ish mobaynida charchab qolmasligi uchun o'lchov olish kam vaqtda (tez) amalga oshirilishi kerak.

3.3.Har bir o'lchov qiymati ikki martadan kam o'lchanmasligi shart. So'ngra har bir o'lchovlarning o'rtacha arifmetik qiymati 1.2.-jadvalga yoziladi. Agar o'lchovlar qiymati 0.5 smga yoki undan ko'p qiymatga farq qilsa, o'lchov uchinchi marta o'lchanadi va eng anig'i yozib olinadi. 1.2.-jadvalning 6,7 ustunlarini talabalar uyda adabiyotlardan foydalanib to'ldiradilar.

3.4.O'lchov olishda qulaylik uchun barcha aylanalar figuraning o'ng tomonida, uzunliklar-qo'l va oyoqlaring tashqarisida belgilab qayd etiladi.



2.2-rasm. Odam tanasidan o'lcham olish.

O'lchamlarning ifodasi va o'lchash joylari.

OST bo'yicha o'lchamlar ning raqami	O'lchamlar ning nomi	O'lcham . Shartli belgilari	O'lchamlarning ifodasi va o'lchash joylari	Jussa o'lchamlari		
				Ind.	Tip.	Farqi
1	2	3	4	5	6	7
1	Bo'y	R	Poldan kallaning yuqori nuqtasigacha masofa vertikal bo'yicha o'lchanadi			
4	Bo'yin asosidagi nuqtaning baladligi	V (tosh)	Poldan bo'yin asosidagi nuqtagacha masofa vertikal bo'yicha o'lchanadi			
5	Eelka nuqtasining balandligi	V (pl)	Poldan yelka nuqtagacha masofa vertikal bo'yicha o'lchanadi			
6	Ko'krak bezlari uchining balandligi	V (st)	Poldan ko'krak bezlari uchigacha masofa vertikal bo'yicha o'lchanadi			
7	Bel nuqtasining balandligi	V(lt)	Poldan belgacha masofa vertikal bo'yicha o'lchanadi			
9	Tizza nuqtasining balandligi	V(k.t)	Poldan vertikal bo'yicha tizza nuqtasigacha o'lchanadi			
10	Bo'yin nuqtasining balandligi	V(ht)	Poldan bo'yin nuqtagacha masofa vertikal bo'yicha o'lchanadi			
11	Orqa qo'lтиq osti burchagining balandligi	V(zv)	Poldan vertikal bo'yicha orqa qo'lтиq osti burchagigacha masofa			
12	Dumba osti burmasining balandligi	V(ps)	Poldan dumba osti burmasining o'rtasigacha vertikal bo'yicha o'lchanadi			
13	Bo'yin aylanasi	O(sh)	Santimetr tasmaning ostki cheti bo'yin nuqtasiga o'tkiziladi. Yondan va olddan tasma bo'yin asosidan o'tib, o'mrov nuqtasida biriktiriladi			

14	Ko'krak aylanasi birinchi	O(G1)	Tasma kuraklarga yotkaziladi. Orqadan tasma gorizontal xolda ustki cheti bilan qo'lтиq osti chuqurligining orqa burchaklariga urinib o'tadi. Oldda tasma ko'krak bezlari ustidan o'tib o'ng tomonda biriktiriladi		
15	Ko'krak aylanasi ikkinchi	O (G2)	Tasma kuraklarga gorizontal yotkaziladi. Ustki cheti Bilan qo'lтиq osti chuqurligining orqa burchaklariga urinib qo'lтиq tagidan og'ma ravishda o'tadi. Oldda tasma ko'krak bezlari uchidan o'tib o'ng tomonda biriktiriladi. 1 va 2 ko'krak aylanalari orqada tasmani siljitmay birin ketin uzluksiz o'chanadi		
16	Ko'krak aylanasi uchinchi	O(G3)	Tasma tana atrofidan ko'krak nuqtaliri ustidan gorizontal bo'yicha o'tib o'ng tomonda biriktiriladi		
17	Ko'krak aylanasi to'rtinchi	O(G4)	Faqat ayollarda o'chanadi. Tasma ko'krak ostidan gorizontal ravishda tana atrovidan o'tadi		
18	Bel aylanasi	O(t)	Tasma tana atrofidan bel chizig'i satxidan o'tishi kerak.		
19	Bo'ksa aylanasi. (Qorin chizig'i bilan)	O(b)	Tasma dumba nuqtalaridan gorizontal o'tib qorin chizig'ini egilgan plastina yordamida xisobga olinadi		
20	Bo'ksa aylanasi.(qortn chizig'isiz)	O(g2)	Tasma tana atrofida dumba nuqtalaridan gorizontal ravishda o'tib o'ng tomonda biriktiriladi		
21	Son aylanasi.	O(bed)	Tasma son atrofidan ustki cheti bilan dumba osti taxlamasiga urinib sonning tashqari chetida biriktiriladi		

25	Yon tomondan bel chizig'dan polgacha masofa	D(cb)	Bel chizig'ining balandlik nuqtasidan yon satxi bo'yicha chuqurroq nuqtasidan o'tib polgacha vertikal o'lchanadi			
26	Old tomondan bel chizig'idan polgacha masofa	D(cp)	Bel chizigidan qorin chizig'i ustidan polgacha vertikal bo'yicha o'lchanadi			
27	Oyoqning ichkari tomonidan uzunligi	D(n)	Oyoqlarni ikki yoqqa bir oz surgan xolda, chotdan oyoqning ichkari tomonidan polgacha o'lchanadi			
28	Yelka aylanasi	O(p)	Yelka o'qiga perpendikulyar bo'yicha o'lchanadi. Tasmaninig ustki cheti qo'lting osti chuqurligining orqa burchaklariga uruntirib qo'lning tashqi satxida biriktiriladi			
29	Bilak aylanasi	O (zap)	Bilak atrofida o'lchanadi			
31	Yelka qiyaligi kengligi	Sh(p)	Bo'yin asosidagi nuqtadan yelka qiyaligi o'rtasidagi yelka nuqtasigacha o'lchanadi			
34	Old o'mizning balandligi	V(prp)	Bo'yin nuqtasidan bo'yin asosi nuqtasi ustidan ko'krak aylanasi birinchi chizig'igacha o'lchanadi			
35	Ko'krak bilandligi	V(g)	Bo'yin asosi nuqtasidan ko'krak uchi nuqtasigacha o'lchanadi			
36	Oldning bel chizig'igacha balandligi	D(tp)	Bo'yin nuqtasi, bo'yin asosi va ko'krak uchi nuqtalari ustidan bel chizig'igacha o'lchanadi			
39	Orqa o'miz balandligi	V (prz)	Bo'yin nuqtasidan ko'krak aylanasi birinchining tasmasigacha masofa o'lchanadi			
40	Orqa bel chizigining uzunligi	D(ts)	Bel chizig'idan bo'yin nuqtasigacha kuraklar chizig'iga qo'yilgan ingichka plastina ustidan umurtqa pag'onasi bo'yicha o'lchanadi			
41	Yelkaning qiya balandligi	V(pk)	Umurtqa pag'onasi bel chizig'i bilan kesishgan			

			nuqtadan yelka nuqtasigacha eng qisqa masofa			
43	Orqaning bel chizig'idan bo'yin asosi nuqtasigacha uzunlik	D(t).(s1)	Bel chizig'idan bo'yin asosi nuqtasigacha masofa umurtqa pag'onasiga parallel o'lchanadi			
44	Tanuning yuqori qismida bo'yin asosi nuqtasidan o'tgan yoy	M(g.t)	Orqa bel chizig'idan umurtqa pag'onasiga parallel bo'yin asosi nuqtasiga urinib ko'krak nuqtasidan old bel chizig'igacha masofa o'lchanadi			
45	Ko'krak kengligi	Sh(g)	Tasmani ko'krak bezlari ustiga gorizontal qo'yib qo'ltilk osti chuqurligining old burchaklaridan ko'tarilgan vertikallarigacha o'lchanadi. O'lchamning yarmi yoziladi			
45*	Ko'krakning kata kengligi	Sh(g.b)	Tasma yordamida ko'krak nuqtalarining satxida old qo'ltilq osti burchaklaridan pastga o'tkazilgan vertikallar orasi o'lchanadi.			
46	Ko'krak markazlari orasidagi masofa	Ts(g)	Tasmani gorizontal holda ushlab ko'krak bezlari uchlari orasidagi masofa o'lchanadi. O'lchamning yarmi yoziladi.			
47	Orqa kenglik	Sh(s)	Tasmani gorizontal holda ushlab kuraklar ustidan, orqa qo'ltilq osti chuqurliklar burchaklarining orasi o'lchanadi. O'lchamning yarmi yoziladi			
49	Bel chizig'idan o'tirgich satxigacha masofa	V(s)	O'lcham bel chizig'idan o'tirg'ichning gorizontal satxigacha yon tomondan o'lchanadi. O'lchami olinadigan kishi qattiq o'tirg'ichli stulda o'tirishi lozim.			
61	Bo'yin asosidan bel chizig'igacha	D(t.p)	Bo'yin asosidan nuqtasidan, kukrak ustidan			

	old tomondan o'lchangان masofا		bel chizig'igacha o'lchanadi.			
62	Qo'lning tirsakkacha uzunligi	Dr(lok)	Yelka nuqtasidan tirsak nuqtasigacha masofa o'lchanadi.			
69	Qo'lning vertikal diametri		«yelka nuqtasining balandligi» o'lcham qiymatidan «qultiq osti chuqurligining orqa burchagi balandligi» o'lcham qiymatini o'lhash bilan aniqlanadi.			
70	Bo'yin nuqtasidan tizzagacha masofa	D(sh.k)	9 va 10 o'lchamlar ayirmasidan aniqlanadi			
71	Bel chizig'idan tizzagacha masofa	D (t.k)	Bel chizig'inining balandligi o'lcham qiymatidan tizza nuqtasining balandligi o'lcham qiymati ayiriladi			
74	Gavda holati	P.(k)	Bo'yin nuqtasidan kurak chizig'igacha vertikal urinma tekisligigacha masofa gorizontal bo'yicha o'lchanadi			
78	Bel chuqurligi birinchi	G(t-1)	Kuraklar chizig'iga vertikal urinma tekisligidan bel chizig'igacha masofa gorizontal bo'yicha o'lchanadi			
79	Bel chukurligi ikkinchi	G(t-2)	Dumba nuqtasiga vertikal qo'yilgan urinma tekisligidan bel chizig'igacha masofa gorizontal qo'yilgan chizg'ich bo'yicha o'lchanadi			

4. Individual va tipaviy qomatlar o'lcham ko'rsatkichlarining solishtirma tahlili.

Jadvalga kiyim konstruktsiyalash amaliyotiga asoslanib bo'yin aylanasi (13), tananing hamma aylanalari (14-20) va yoyli ko'ndalang (45-47) o'lchovlarning yarim miqdori yoziladi.

2.2.- jadvaldagi 6-ustunga tipaviy figuraning o'lchamlari yoziladi. Avval talabalar OST 17-326-28 va OST 17-325-6-86 bo'yicha ayollar va erkaklar quyidagi o'lchamlar jussanining yettinchi o'lchamlari deyiladi:

Ayollar uchun: R(1)-Og3(16)-Ob(19)

Erkaklar uchun: R(1))-Og3(16)-Ot(18)

OST 17-320-81 talablari bo'yicha ayollar qomati to'rtta to'lalik guruhlariga bo'linadi. Bel aylanasi va ko'krak aylanasi o'lchamlari orasidagi farq to'lalik guruhini bidiradi.

Ishni bajarishga qo'yiladigan talablar:

Talabalar meyoriy xujjatlardan (OST va GOST) individual figura o'lchamlariga mos tipaviy o'lchamlar qiymatlarini yozib oladilar (1.2-jadvalning 6-ustuni) va ularni o'zaro solishtiradilar. Farqi 7-ustunga qayd etiladi.

5. Xulosadan bajarilgan ishning qisqacha mazmuni keltiriladi.

Individual va tipaviy qomatlarning solishtirma xarakteristikasidan foydalanib, ularning bir biridan farqi tushuntiriladi.

Yetakchi o'lchamlar (R(1)-Og3(16)-Ob(19)) dan foydalanib, o'lcham va unga oid bo'lgan to'lalik guruhi aniqlanadi.

Nazorat savollari:

- 1.Qomat o'lchamlari deganda nima tushuniladi?
- 2.Qaysi qomat o'lchamlari yetakchi xisoblanadi?
- 3.Qomat o'lchamlari qanday tartibda olinadi?

4-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: Mulyaj usulini qo'llab to'g'ri yubka konstruksiyasini ishlab chiqish.

Ishdan maqsad: Mulyaj usulida to'g'ri bichimdan detallar yoyilmasini bajarishni o'rghanish.

Ish mazmuni:

- 1.Manekenda gazlamani qadash usuli xarakteristikasi, ahamiyati va kiyim shaklini loyihalashda qo'llanishi.
- 2.Manekenda gazlamani qadashni o'rghanish.
- 3.Manekenda yubka qadalmasini bajarish.
- 4.Mulyaj usuli orqali hosil bo'lgan detallar yoyilmasini tekshirish.

Qo'llanma va anjomlar: maneken, ip, igna, bur, sm, tasma, to'g'nog'ichlar, gazlama parchasi, millimetrlı qog'oz, lineyka, qaychi, kalka qog'ozi, rezets.

Adabiyotlar:{2, 282-290 b}.

Uslubiy ko'rsatmalar:

Kiyimlarning yangi shaklini hosil qilishda mulyaj usulidan foydalinish katta imkoniyatlar yaratadi. Bunda manekenda yoki odam qomatida to'g'nog'ich qadash yo'li bilan yangi kiyim konstruktsiyasi xosil qiladi.

Manekenda asosiy qadalma orientir chiziqlari, simmetrik va konstruktiv yo'nalishini aniqlash maqsadida quyidagi chiziqlar bo'yicha tasma o'tkaziladi

A-N-ort bo'lak o'rtasi;


A1-N1-ort bo'lak o'rtasi;

AA2A1-bo'yin aylanasi chizig'i;

GG2G1-ko'krak aylanasi chizig'i;

TT2T1-bel aylanasi chizig'i;

BB2B1-Bo'ksa aylanasi chizig'i (bel chizig'idan 20sm masofada);



4.1.-rasm. To'g'ri bichimdagi yubka qadalmasi .

4.1. Qadalmani bajarishda yubkaning old bo'lagi uchun uzunligi yubkaning uzunligi - 2sm , kengligi-old bulak o'rtasidan yon chizig'iga bo'ksa chizg'idan o'lchangan masofa-

5smga teng gazlama bo'lagi olinadi. Maket gazlamasi ikkinchi bo'lagining ulchami birinchisiga o'xshash aniqlanadi. Keyin gazlamaning chetidagi yoki milkidan 2sm masofa old va ort bo'laklarning o'rtasiga mos bo'lgan tanda ishlarining yo'nalishi bo'yicha ishlar o'tkaziladi, arqoq ishi yo'nalishi bo'yicha esa gazlamaning yuqori qirqimidan 2sm va bel chizigidan 20 sm masofada bo'ksa chizig'i bo'yichi o'tkaziladi.

4.2. Yubkaning ort bo'lagini qadash uchun (rasm), maketli gazlamaning birinchi bo'lagi manekenga old bo'lakning va manekenning o'rta chiziqlarini, bo'ksa chizig'i bo'yicha arqoq ishlarini ustma ust tushirib, gazlama o'rtasidan qadaladi. Bunda 1 to'g'nog'ich bel chizigiga, 2-bo'ksa chizig'iga qadaladi. Keyin gazlama tekislanadi, bo'ksa chizig'idan o'tkazilgan ipni maneken tasmasi bilan ustma-ust tushirib, yon chizig'igacha yaqinroq bo'ksa qirqimiga 3-to'g'nog'ich qadaladi, lekin erkin xarakat uchun 0.5-1sm qoldiriladi. To'g'nog'ich 4 qo'ltilqning old burchagidan o'tgan vertikalning davomida bel chizig'iga qadaladi, 5 ham bel chizig'ida yon qirqim sathida qadaladi. Lekin bu paytda tanda iplarning yo'nalishi kuzatib boriladi. Bel chizig'ida hosil bo'lgan gazlamaning ortiqcha bitta yoki 2 ta vitochka. Yubka old bo'lagi konstruktsiyasi asosida vitochkani urtasi detalini o'rtasida 10-12sm masofada joylashtiriladi va 2ta to'g'nog'ich bilan mahkamlanadi.

4.3. Yubkaning ort bo'lagi ham xuddi shunday usulda qadaladi. Bunda old bo'lak vintochkasining uzunligi 8-11sm, ort bo'lakniki 15-17sm ni tashkil qiladi.

Ort va old bo'laklar yon qismlaridagi gazlamaning ortiqcha bulaklari birlashtirish uchun 1.5-2sm qoldirib qirqib tashlanadi. Ort bo'lakning yon qirqimi bukланади, buklangan ziy manekenda yon chokining o'rnini belgilovchi tasmaning o'rtasi bilan bel chizig'i belgilanadi.

5. Yubkaning qadalmasi manek endan olinadi. Old va ort bo'laklarining yon choklari bo'yicha iplar o'tkaziladi, bel va bo'ksa chizigi sathida nazorat chiziqlari qo'yiladi, vitochkalar bo'yicha ishlar o'tkaziladi. Qadalmadan to'g'nog'ichlar olinadi, yubkaning detallari stolda tekislanadi, yon chiziqlar, vitochkalar va bel chizig'i aniqlanadi. Yon va bel qirqimlari bo'yicha 1.5 sm choc xaki koldirib, xamma konstruktiv chiziqlarning aniqlangan konturlari ko'rsatiladi. Yubkaning yarim maketini tikib, yana bir marta manekenning o'ng tomoniga qadaladi, shu bilan birga, uning konstruktsiyasi va muvozanati manekenda tekshiriladi. Hosil bo'lgan yoyilma rezets yordamida mm qog'ozga tushirilib, bo'ksa chizig'i va vitochka o'rinnari belgilanadi.

Ishni bajarishga qo'yiladigan talablar.

Talabalar labaratoriya mashg'ulotini ishi bajarish tartibiga mos xolda bajaradilar.

Labaratoriya ishiga qo'yidagilar ilova qilinadi:

- a) 1:1 masshtabda qadalma yoyilmasi;

- b) eskiz rasm shaklida qadalmaning bajarilish ketma ketligi;
v) qadalma maketi.

5-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: Hisob usulini qo'llab tipaviy qomatga to'g'ri yubka AK sinii qurish.

Ishdan maqsad: Hisob usuli yordamida to'g'ri yubka konstruksiyaini o'rghanish

Ish mazmuni:

1. To'g'ri yubka konstruksiyasini qurish usullarini o'rghanish.
2. To'g'ri yubka asos konstruksiyasini hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlarni tanlash:
a) o'lcham ko'rsatkichlari, b) konstruktiv qo'shimchalar.
3. To'g'ri yubka asos konstruktsiyasini xisoblash va qurish.
4. Hisob usulida va mulyaj usulida qurilgan konstruktsiya chizmalarini solishtirish.

Qo'llanma va anjomlar: Manekenlar, chizmachilik anjomlari, to'g'ri yubka namunasi, millimetrlı qog'oz.

Uslubiy ko'rsatmalar:

1. To'g'ri yubka konstruktsiyasini qurish usullarini o'rghanib, ularning xususiyatlari dastlabki ma'lumotlar, xisoblash metodikasi va chizmani qurishning grafik vositalari aniqlanib olingan. Yubka konstruktsiyasini qurish uchun talaba nazariy darslar asosida eng zamonaviy va qulay usulni tanlaydi.

Konstruktsiya qurish uchun tanlangan metodika bo'yicha hisob formulalari tizimi yozib olinadi. Tavsiya etilgan adabiyotdan konstruktiv qushimchalar qiymatini tanlash uchun Yana bir bor model eskizini taxlil qilish zarur. Konstruktsiya qurishda talaba qiynalmasligi va konstruktsiya chizmasini qurishni tayyor xisoblardan foydalanish mumkin.

2. To'g'ri yubka asos konstruktsiyasini hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar tanlangan konstruksiyalash usuli bo'yicha aniqlab olinadi.

a) Davlat standartlari (GOST) yoki tarmoq standartlaridan foydalanib, to'g'ri yubka konstruktsiyasini qurish uchun tipaviy qomatning o'lcham ko'rsatkichlari aniqlanadi. Natijalar 5.1-jadvalga yoziladi.

5.1-jadval.

Tipaviy qomatning o'lcham ko'rsatkichlari

Bo'y _____. Razmer _____. To'lalik guruhi _____

Nº	O'lcham ko'rsatkichlari nomi	O'lcham ko'rsatkichlari nomi	Qiymati, sm.
1	Bel yarim aylanasi	S _t	38

b) metodika tavsiyalarigi binoan to'g'ri yubka konstruktsiyasini qurish uchun zarur qo'shimchalar olinadi. Natijalar 5.2-jadvalga yoziladi.

5.2-jadval

To'g'ri yubka kostruksiyasini qurishda qo'llaniladigan qo'shimchalar

Nº	O'lcham ko'rsatkichlari nomi	O'lcham ko'rsatkichlari nomi	Qiymati, sm.
1	Bel chizig'i bo'yicha	Pt	0.5-1

5.3- jadval

To'g'ri yubka konstruktiv o'lchamlarining taxlili


Nº	Konstruktiv parametrlar	Belgilanishi	Qiymati, sm	
			Asos konstruksiyasi	Yoyilma chizmasi
1	Bel chizi'i bo'yicha umumiy qo'shimcha	Pt		
2	Bo'ksa chizig'i bo'yicha qo'shimcha	Pb		
3	Old-ort balans	Bpz		
4	Old bel vintochkasi qiymati	Zvit		
5	Ort bel vintochkasi qiymati	Pver		
6	Yon chiziq chuqqisining gorizontal chiziqqa nisbatan o'rni	Shpb		

3.Bu qismda tipik qomat o'lchov ko'rsatkichlari va qo'shimchalardan foydalanib, to'g'ri yubka asos konstruktsiyasi hisobi bajariladi. Natijalar 5.3- jadvalga yoziladi. YEMKO SEV metodikasida to'g'ri yubka kostruksiyasi hisobi 170-96-104 razmeriga berilgan bo'lib, talabalar undan foydalanishi mumkin.

To'g'ri yubka konstruktsiyasini qurish

Nº	O'lcham ko'rsatkichlari nomi	O'lcham ko'rsatkichlari nomi	Qiymati, sm.
1	Bel chizig'i xolati	T	-
2	Bo'ksa chizig'i xolati	TB	0,5 DD=0,5 x 40

To'g'ri yubka konstruktsiyasi chizmasini qurish 5.3-jadvaldagagi hisob bo'yicha bajariladi. Chizma 1:1 masshtabda millimetrlı qog'ozda chizmachilik talablariga rioya qilgan holda chiziladi. Barcha chiziqlar o'zaro tutashtirilib asosiy kontur chiziqlari qalin chiziq bilan chiziladi. Asosiy kontur chiziqlarining o'zaro uyg'unligi tekshiriladi. Yon chiziqlar, vitochka o'mni kertiklar qo'yiladi.



5.1-rasm. To'g'ri yubka konstruktsiyasini qurish.

Ishni bajarishga qo'yiladigan talablar

- 1.Talabalar laboratoriya ishini tartibga mos holda bajariladi.
- 2.Laboratoriya ishining yozuv qismi A4- formatli qo'ozda, chizmalar 1:1 masshtabda millimetrlı qog'ozda bajariladi.
3. To'g'ri yubka asos konstruktsiyasi (AK)ning chizmasi M 1:1 masshtabda ilova qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Konstruktsiya qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.
2. "Bazis to'ri" nima?
3. SINISHP metodikasi xaqida ma'lumot bering.

6-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: Aniq qomatga shim konstruksiyasini ishlab chiqish.

Ishdan maqsad: Shim asosiy konstruksiyasini qurish uni qomatga moslash.

Ish mazmuni:

1. Shim konstruksiyasini qurish usullarini o'rganish.
2. Shim asos konstruksiyasini hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlarni tanlash:
 - a) o'lcham ko'rsatkichlari, b) konstruktiv qo'shimchalar.
3. Shim asos konstruksiyasini xisoblash va qurish.

Qo'llanma va anjomlar: millimetrlı qog'oz, chizmachilik anjomlari, kalka, sm lenta.

Uslubiy ko'rsatmalar:


1. Shim konstruksiyasini qurish usullarini o'rganib, ularning xususiyatlari dastlabki ma'lumotlar, xisoblash metodikasi va chizmani qurishning grafik vositalari aniqlanib olingan. Shim konstruksiyasini qurish uchun talaba nazariy darslar asosida eng zamonaviy va qulay usulni tanlaydi.

Konstruktsiya qurish uchun tanlangan metodika bo'yicha hisob formulalari tizimi yozib olinadi. Tavsiya etilgan adabiyotdan konstruktiv qo'shimchalar qiymatini tanlash uchun yana bir bor model eskizini taxlil qilish zarur. Konstruktsiya qurishda talaba qynalmasligi va konstruktsiya chizmasini qurishni tayyor xisoblardan foydalanish mumkin.

2. Shim asos konstruksiyasini hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar tanlangan konstruksiyalash usuli bo'yicha aniqlab olinadi.

a) Davlat standartlari (GOST) yoki tarmoq standartlaridan foydalanib, Shim konstruksiyasini qurish uchun tipoviy qomatning o'lcham ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Shim konstruktsiya chizmasini xisoblash va qurish



Ayollar shimini konstruksiyalash.

Ayollar shimini konstruksiyalashda quyidagi o'lchamlar kerak bo'ladi.

(164-92-100)

t.r	O'lchov belgisi	natija
1	Bel aylanasining yarmi.	36
2	Bo'ksa aylanasining yarmi	50
3	Beldan tizzagacha bo'lgan uzunlik	60.4
4	Bo'ksa balandligi	28
5	Shim uzunligi	100
6	Pocha kengligi	20

Buyum bemalollik turushi uchun qo'shiladigan qo'shimchalar.

o'shim qo'shiladigan o'lchamlar	Shartli belgilar	Yopishib turadigan siluet		Sal yopishib turadigan siluet		Bemalol turadigan siluet	
		Erkaklar uchun	Ayollar uchun	Erkaklar uchun	Ayollar uchun	Erkaklar uchun	Ayollar uchun
Bel yarim aylanasi	P _t	-	0.5-1.0	1.0-1.5	1.0-1.5	1.5-2.0	1.5-2.0
Bo'ksa yarim aylanasi	P _b	0-0.5	1.0-2.0	1.0-2.5	2.0-3.0	3.0-7.0	5.0-8.0

Shimning baza to'rini dastlabki xisoblash.

Konstruktiv bulaklarning shartli belgisi	Konstruktsiyadagi kismi	Xisoblash formulasi	Natija.sm
T ₀ YA ₁	Vertikal bo'y lab pastga	D _s +P _{ds} =28+1	29
T ₀ K ₀	Vertikal bo'y lab pastga	D _{tk}	60,4
T ₀ N ₀	Vertikal bo'y lab pastga	D _{br}	100
YA ₁ B ₁	Vertikal bo'y lab yuqoriga	1/3* T ₀ YA ₁ =1/3*29	9,6
T ₀ , YA ₁ , B ₁ , K ₀ , N ₀ gorizontal bo'y lab unga chiziq chizib bel, bo'ksa, dumba osti chizig'i, tizza va buyum etak chizig'ini xosil qilamiz.			
B ₁ B ₂	Gorizontal bo'y lab uningga	0.5*C _b +0.5*P _b =0,5*50+0,5*1	25,5
B ₂ nuqtadan vertikal bo'y lab pastga va yuqoriga chiziq chizib bel chizig'iga tutashgan joyini T ₂ , dumba osti chizig'ini YA ₂ deb belgilanadi.			
YA ₂ YA ₃		0.1(S _b +P _b)=0,1(50+1)	5,1
YA ₁ YA=YA ₂ YA ₃		YA ₁ YA ₃ /2=30,6/2	15,3
T,B,YA,N nuqtalarini to'g'ri chiq bilan biriktiriladi			
H ₁ H ₂		SH _n -2=20-2	18
HH ₁ =HH ₂		H ₁ H ₂ /2=18/2	9
HH ₃ =HH ₄		HH ₃ +2=9+2	11



B₁B₃		0,1(C_b+ P_b)-2=0,1(50+1)-2	3,1
B₃B₄		0,5* C_b+0,5* P_b=0,5*50+0,5*1	25,5
B₄B₅		0,05(D_s+S_b)-0,5=0,05(28+50)-0,5	3,4
YA₂YA₂₁		0,05* S_b=0,05*50	2,5
B₅T₅= B₂T₂			19,4
YA₂1		0,25* YA₁B₁=0,25*9,6	2,4

T₂,B₂,1, YA₃ nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan biriktiriladi.

T₂T₄		0,5(C_t+ P_t)+v+s v-2-2,5 s-3.0-5.0 ga teng	
KK₁= KK₂		(SH_k-2)/2	12

B₁, K₁, H₁ nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan biriktiriladi.

YA₂₁YA₅		0,25(C_b+ P_b)-1,5=0,25(50+1)-1,5	11,3
YA₂2		2,0-2,5	2,0
YA₅YA₆		0,5-1,0	1,0
T₅T₆		0,5(C_t+ P_t)+v₁=0,5(36+1)+2,5	21



Ishni bajarishga qo'yiladigan talablar

1. Talabalar laboratoriya ishini tartibga mos holda bajariladi.
2. Laboratoriya ishining yozuv qismi A4- formatli qo'ozda, chizmalar 1:1 masshtabda millimetrali qog'ozda bajariladi.
3. To'g'ri shim asos konstruktsiyasi (AK)ning chizmasi M 1:1 masshtabda ilova qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Konstruktsiya qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.
2. Shim konstruksiyasini qurish uchun kerakli o'lchov va qo'shimchalar.
3. Shim konstruksiyasini qurish uchun nimalarga e'tibor berish kerak.

7-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: Aniq qomatga mulyaj usulini qo'llab ayollar ko'ylagi konstruksiyasini ishlab chiqish

Ishdan maqsad: Aniq qomatga mulyaj usulini qo'llab ayollar ko'ylagi konstruksiyasini ishlab chiqishni o'rganish.

Ish mazmuni:

- 1.Qomatni qadalmaga tayyorlash.
- 2.Old va ort bo'laklar qadalmasini bajarish uchun gazlama parchasini tayyorlash.
- 3.Lif (old va ort) qadalmasini manekenda bajarish.
- 4.Qadalma asosida paydo bo'lgan konstruktsiyasining yoyilmsini tekshirish.
- 5.Qo'llanma va anjomlar: manekenlar, chizmachilik anjomlari, ip,igna, bo'r, sm, tasma, to'g'nog'ich, gazlama parchasi, millimetrlı qog'oz, rezets.

Adabiyotlar: {1.2}

Lif qadalmasi uchun o'lchamlari manekenga mos, lif bo'linishi chiziqlarini va erkinlikka beriladigan qushimchalarni xisobga olgan turburchakli gazlama bulaklari bichiladi.

2,1 Old bo'lak uchun mo'ljallangan gazlama bo'laklarining uzunligi old belgacha uzunligi o'lchami 8 sm ga kengligi manekenni kurak chizig'i bo'yicha old bo'lak o'rtasidan yon chizig'igacha o'lchami Q1-3sm erkinlikka 2 sm choc xaqi va old bo'lak o'tar qismi uchun 2-2,5sm miqdoriga teng.

Old bo'lak uchun mo'ljallangan gazlama bo'lagiga tanda ipi yo'nalishi bo'yicha choclar o'tkaziladi: old bo'lak o'rtasida milkidan 2-2,5sm masofada, bu chocdan 10 sm ko'chirib ko'krak uchlari nuqtasidan arqoq iplari yo'nalishida bel chizig'i va ko'krak chizig'i bo'yicha choclar o'tkaziladi.

Ort bo'lak uchun gazlama bo'lagi yuqoridagiga o'xshash aniqlanadi. Ort bo'laklar tanda ipi yo'nalishi bo'yicha o'rtasida-gazlama milkidan 2sm masofada va kuraklarning yeng chiqqan nuqtasidan chiziqlar o'tkaziladi. Arqoq iplari yo'nalishi bo'yicha chiziqlar old bo'lakning chiziqlariga o'xshash tarzda o'tkaziladi.

3. Qadalma xuddi ayollar ko'ylagini ulchab ko'rganday, o'ng tomonda .

Gazlama manekenga, old bo'lak o'tasida o'tkazilgan ip maneken o'rtasidan ustma-ust tushirilib, ko'krak chizig'i bo'yicha o'tkazilgan tanda ipi yo'nalishi bo'yicha maneken ko'krak chizig'i bilan va to'g'nog'ichlar avval ort bo'lak o'rtasiga, keyin ko'krak uchi bo'yicha qadaladi

3.1 Old bo'lak qadalmasi quyidagicha bajariladi 1 to'g'nogich bo'yin chizig'ida, 2-ko'krak chizig'ida, 3-bel chizig'ida, 4-old yoki o'mizining tepasida, 5-ko'krak uchi nuqtasida, 6-

to'g'nogich 5 nuqtadan 10sm o'miz tomonga qadaladi, 7-chokning tepasida. Bundan so'ng, gazlama o'miz bo'ylab keltiriladi va yelka tarafga. Qadalma natijasida xosil bo'lган gazlamaning ortiqchasi elka chizigidagi vintochkaga kiritiladi. Vintochka uchta to'g'nog'ich bilan maxkamlanadi (8,9,10 nuqta). Keyin 11 to'g'nog'ich bilan o'mizga urinma chizig'ida, bel chizig'ida gazlama maxkamlanadi. Bel chizig'idagi to'g'nog'ichlar 3 va 11 orasidagi gazlamaning ortiqchasi vitochka kengligini aniqlaydi. Vintochka 12,13 va 14 to'g'nog'ichlar bilan maxkamlanadi.

3.2 Ort bo'lak qadalmasi quyidagicha bajariladi: 1 to'g'nog'ich ort bo'lak yoki o'miziga joylashadi, 2-ko'krak chizig'ida, 3-bel chizig'ida, 4-yoqa o'mizining tepasida, 5-ko'krak chizig'ida o'miziga urinadi. Keyin gazlamaning ortiqchasi o'mizdan yelka tarafga yig'ilib vintochkaga taxlanadi. Vintochka ko'krak chizig'i nuqtasiga yo'naladi va 2-to'g'nog'ich 8 bel chizig'idan o'mizga urinmada joylashadi. 3-8 kesmadagi gazlamaning ortiqcha qismini vintochkaning kengligi aniqlaydi. Vintochka 9, 10,11 to'g'nogichlar bilan maxkamlanadi.

3.3 Old va ort bo'lakdagi ortiqcha gazlama yelka va yon chok tomonlarda 1,5-2sm qoldirib qirqiladi.

Yelka va yon qirqimlari bukланади va old bo'lak ustiga buklangan ziyi manken tasmasi bo'yicha joylashdigan qilib to'g'naladi. Maneken tasmasi bo'yicha qadalmada bo'yin va o'miz chiziqlari belgilanadi. Gazlamaning ortiqcha o'mizlar bo'ylab chokka 1,5sm qoldirib qirqiladi.

4. Lif qadalmasi manekendan olinadi. Old va ort bo'lakning yon va yelka choklari chizig'idan iplar o'tkaziladi. Yon chok chiziqlariga nazorat belgilari qo'yiladi. Vintochkalar ustidan ham iplar o'tkaziladi. To'g'nog'ichlar lif qadalmasidan olinadi. Old va ort bo'laklar stolda tekislanadi, yon va yelka choklar konturlari, vintochkalar, yoka va yeng o'mizlari aniqlanadi. Xamma konstruktiv chiziqlarning ortiqchasi qirqib tashlanadi, lekin qirqimlar bo'yicha chok xaqi qoldiriladi: 1,5sm yoniga, yelka va o'mizga, 0,7-0,8sm yoka o'miziga. Lifning aniqlangan detallarini millimetrik qog'oz ustiga tekislab rezets yordamida detallar, nazorat belgilari va detallarning o'tra chiziqlari o'tkaziladi. Lif detallaridan tanda ipining yo'nalish, detallar o'rtasi, bel chizig'i va lif detallarini birlashtirishda zarur nazorat belgilari ko'rsatiladi. Konstruktsianing to'g'rili detallar kontur chiziqlarining tutashmasi orqali tekshiriladi.

Ishni bajarishga qo'yiladigan talablar:

1. Ishni bajarishda laboratoriya mazmuni yozuv qismida to'liq kiritiladi.
2. Qadalma bajarilgan yoyilma maketini bajarish ketma-ketligining rasm chiziladi.
3. 1:1 masshtabda yoyilma (konstruktsiya) qadalmasi bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

Asosiy adabiyotlar

- 1.Kamilova X.X. Xamrayeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash». Darslik. – T.: «Cho'lpon », 2011 y. – 400 b
2. X.X.Комилова, Н.К.Хамраева. Тикув буюмларини конструкциялаш. Дарслик. – “Молия”, 2003 q. – 350 б.
3. Коблякова Е.Б. Лабораторный практикум по конструированию одежды с элементами САПР. – Москва, “Легпробтиздан”, 1992 г. – 320 с.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 4.Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишинланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутки // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №1
- 5.Янчевская Е.А. Аёллар уст кийимини конструкциялаш. Т.: «Ўқитувчи» 1998 йил. – 320 б
6. Мартынова А.И., Андреева Е.Г., «Конструктивное моделирование одежды» . М., 2002 – 310 с
7. Коблякова Е.Б. Конструирование одежды с элементами САПР. Учебник.- М., «Легпромбытиздан», 1988 г. – 464 с.
- 8.Амирова Э., Сакулина О. и др. Конструирование одежды. Учебник «Академия», 2012 г.

Internet saytlari

- 9.www.liveinternet.ru
10. www.book.style.ru
- 11.https://vk.com/topic-58171768_28943378
12. <http://www.liveinternet.ru/users/ggulsiay/post213500916/>
- 13.<http://modanews.ru/books>
- 14.<https://www.labirint.ru/books/325953/>

Mundarija

Kirish.....	3
Kiyim tashqi shakli va konstruksiyasini taxlili.....	4
Kiyim tashqi va ichki razmerlari taxlili qo'shimchalarni xisoblash.....	5
Kiyim loyixalashda qo'llaniladigan razmer o'lchamlari taxlili.....	8
Mulyaj usulini qo'llab to'g'ri yubka konstruksiyasini ishlab chiqish.....	19
Xisob usulini qo'llab tipaviy qomatga to'g'ri yubka AK sini qurish.....	22
Aniq qomatga shim konstruksiyasini ishlab chiqish.....	25
Aniq qomatga mulyaj usulini qo'llab ayollar ko'yagi konstruksiyasini ishlab chiqish.....	27
Foydalaniman adabiyotlar ro'yhati.....	32

